



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	755	Qo'rg'on tepa t.	233
Baliqchi t.	422	Oltinko'l t.	210
Andijon t.	363	Marhamat t.	200
Asaka t.	350	Jalaquduq t.	182
Shahrixon t.	335	Bo'ston t.	146
Xo'jaobod t.	250	Buloqboshi t.	139
Izboskan t.	246	Ulug'nor t.	73
Paxtaobod t.	244	Xonobod sh.	53


Joriy yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 201 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 160 taga kamaydi va 96,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Baliqchi (83 ta), Xo'jaobod (66 ta), Izboskan (54 ta), Paxtaobod (44 ta), Qo'rg'on tepa (38 ta), Shahrixon (32 ta), Oltinko'l (26 ta) va Marhamat (25 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 637
134,8 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 748
103,7 %

Sanoat

3 326
98,9 %

Qurilish

12 983
110,2 %

Savdo

1 447
103,4 %

Tashish va saqlash

1 991
101,1 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

602
97,4 %

Axborot va aloqa

1 105
111,7 %

Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8 976
104,9 %

Boshqa turlar

Hududlar kesimida


Andijon sh.	12 902
Asaka t.	4 111
Andijon t.	3 091
Shahrixon t.	3 054
Baliqchi t.	2 418
Izboskan t.	2 170
Qo'rg'ontepa t.	2 170
Oltinko'l t.	2 146
Marhamat t.	1 931
Xo'jaobod t.	1 890
Paxtaobod t.	1 838
Jalaquduq t.	1 796
Buloqboshi t.	1 358
Bo'ston t.	1 185
Xonobod sh.	896
Ulug'nor t.	859

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (40 774 ta) nisbatan 3 041 taga oshib, o'sish sur'ati 107,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon (359 ta), Baliqchi (325 ta), Izboskan (324 ta), Xo'jaobod (324 ta) va Shahrixon (261 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 1 204 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 938 ta, sanoatda – 347 taga to'g'ri kelib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 21 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	706
Baliqchi t.	414
Andijon t.	352
Asaka t.	328
Shahrixon t.	321
Paxtaobod t.	240
Xo'jaobod t.	237
Izboskan t.	236
Qo'rg'ontepa t.	228
Oltinko'l t.	202
Marhamat t.	196
Jalaquduq t.	178
Bo'ston t.	139
Buloqboshi t.	132
Ulug'nor t.	69
Xonobod sh.	50

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 37 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi (84 taga), Xo'jaobod (58 taga), Izboskan (49 taga), Paxtaobod (47 taga), Qo'rg'ontepa (35 taga) va Marhamat (26 taga) tumanlarida sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (750 taga) hamda tashish va saqlash sohasida (6 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 38 402 tasi yoki 87,6 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,4 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (135,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (111,7 foiz), savdo (110,2 foiz), sanoat (103,7 foiz) hamda tashish va saqlash (103,2 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (123,3 foiz), Izboskan (119,0 foiz), Baliqchi (118,5 foiz), Ulug'nor (116,6 foiz), Jalaquduq (116,3 foiz), Bo'ston (115,8 foiz) va Paxtaobod (115,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 728
Asaka t.	3 670
Andijon t.	2 779
Shahrixon t.	2 593
Baliqchi t.	2 114
Izboskan t.	1 883
Oltinko'l t.	1 838
Qo'rg'ontepa t.	1 825
Marhamat t.	1 664
Xo'jaobod t.	1 662
Paxtaobod t.	1 569
Jalaquduq t.	1 489
Buloqboshi t.	1 130
Bo'ston t.	974
Xonobod sh.	787
Ulug'nor t.	697


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	705	Qo'rg'on tepa t.	228
Baliqchi t.	413	Oltinko'l t.	202
Andijon t.	351	Marhamat t.	196
Asaka t.	328	Jalaquduq t.	178
Shahrixon t.	321	Bo'ston t.	139
Paxtaobod t.	240	Buloqboshi t.	132
Xo'jaobod t.	237	Ulug'nor t.	69
Izboskan t.	236	Xonobod sh.	50


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish
1 080	756	182
Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
1 329	111	122
Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turlar
77	97	271


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-avgust oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 165 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 750 taga hamda tashish va saqlashda – 6 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 659	Marhamat t.	1 658
Asaka t.	3 660	Xo'jaobod t.	1 655
Andijon t.	2 768	Paxtaobod t.	1 566
Shahrixon t.	2 589	Jalaquduq t.	1 483
Baliqchi t.	2 110	Buloqboshi t.	1 129
Izboskan t.	1 880	Bo'ston t.	972
Oltinko'l t.	1 831	Xonobod sh.	783
Qo'rg'ontepa t.	1 820	Ulug'nor t.	693

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 2 639 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 107,4 foizni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (134,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (111,8 foiz), savdoda (110,2 foiz) hamda sanoat (103,6 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (123,2 foiz), Izboskan (119,1 foiz), Baliqchi (118,4 foiz), Ulug'nor (116,5 foiz), Jalaquduq (116,1 foiz) va Bo'ston (116,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

2- bo'lim. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 434

21

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura

182


Asaka t.	460
Andijon sh.	316
Shahrixon t.	298
Andijon t.	293
Qo'rg'ontepa t.	280
Izboskan t.	269
Baliqchi t.	267
Paxtaobod t.	247
Marhamat t.	208
Jalaquduq t.	203
Oltinko'l t.	176
Bo'ston t.	166
Ulug'nor t.	151
Xo'jaobod t.	146
Buloqboshi t.	108
Xonobod sh.	49

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 005
Asaka t.	1 002
Andijon t.	864
Shahrixon t.	721
Xo'jaobod t.	561
Baliqchi t.	488
Oltinko'l t.	462
Qo'rg'ontepa t.	394
Izboskan t.	371
Jalaquduq t.	367
Marhamat t.	332
Buloqboshi t.	310
Paxtaobod t.	308
Bo'ston t.	217
Xonobod sh.	210
Ulug'nor t.	136



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 152,2 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 104,0 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (100,0 % ni), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (92,3 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (94,8 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 027
97,2 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

303
115,6 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

996
98,2 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 11,2 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,9 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,0 foiz ulushni va 98,2 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 531
Asaka t.	1 161
Baliqchi t.	855
Shahrixon t.	854
Andijon t.	849
Oltinko'l t.	756
Izboskan t.	735
Qo'rg'ontepa t.	697
Paxtaobod t.	650
Jalaquduq t.	590
Marhamat t.	588
Xo'jaobod t.	584
Buloqboshi t.	371
Bo'ston t.	308
Xonobod sh.	229
Ulug'nor t.	225

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

8 341
109,0 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 685
112,0 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

957
114,6 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,2 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,0 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etib, 12,0 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,4 foiz ulushni tashkil etib, 14,6 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	779
Asaka t.	177
Andijon t.	142
Xonobod sh.	104
Shahrixon t.	103
Oltinko'l t.	83
Qo'rg'ontepa t.	82
Ulug'nor t.	74
Izboskan t.	69
Paxtaobod t.	62
Jalaquduq t.	61
Buloqboshi t.	57
Xo'jaobod t.	57
Baliqchi t.	55
Marhamat t.	49
Bo'ston t.	37

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 15,9 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,5 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	225
Asaka t.	45
Baliqchi t.	40
Marhamat t.	40
Shahrixon t.	36
Xo'jaobod t.	36
Buloqboshi t.	34
Andijon t.	30
Qo'rg'ontepa t.	24
Oltinko'l t.	20
Paxtaobod t.	16
Jalaquduq t.	15
Izboskan t.	15
Xonobod sh.	10
Ulug'nor t.	10
Bo'ston t.	6



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,0 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 39,9 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 95,2 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	393
Asaka t.	94
Shahrixon t.	90
Andijon t.	70
Izboskan t.	60
Baliqchi t.	58
Marhamat t.	49
Oltinko'l t.	47
Qo'rg'ontepa t.	45
Xo'jaobod t.	44
Paxtaobod t.	44
Buloqboshi t.	42
Jalaquduq t.	37
Xonobod sh.	17
Bo'ston t.	9
Ulug'nor t.	6

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 075
111,4 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18
105,9 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


12
171,4 %

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 11,4 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 5,9 foizga oshgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	600
Asaka t.	137
Andijon t.	101
Shahrixon t.	80
Qo'rg'ontepa t.	65
Izboskan t.	55
Xo'jaobod t.	53
Marhamat t.	52
Oltinko'l t.	51
Baliqchi t.	51
Paxtaobod t.	50
Jalaquduq t.	41
Bo'ston t.	39
Buloqboshi t.	38
Ulug'nor t.	18
Xonobod sh.	16

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 111
106,2 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

310
94,8 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25
96,2 %

Havo transporti

1
100,0 %

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 6,2 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni, pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 96,2 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 94,8 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	660	Xo'jaobod t.	197
Baliqchi t.	373	Marhamat t.	186
Andijon t.	308	Oltinko'l t.	176
Shahrixon t.	274	Jalaquduq t.	144
Asaka t.	272	Buloqboshi t.	125
Izboskan t.	218	Bo'ston t.	84
Qo'rg'ontepa t.	201	Ulug'nor t.	64
Paxtaobod t.	199	Xonobod sh.	47

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 774
151,3 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 438
107,6 %



Sanoat

2 938
102,3 %



Qurilish

10 327
114,3 %



Savdo

1 338
104,9 %



Tashish va saqlash

1 365
104,9 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

480
105,5 %



Axborot va aloqa

834
114,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 904
106,8 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 538

Asaka t. 2 354

Andijon t. 2 208

Shahrixon t. 2 062

Baliqchi t. 1 668

Izboskan t. 1 625

Oltinko'l t. 1 481

Xo'jaobod t. 1 429

Marhamat t. 1 410

Qo'rg'ontepa t. 1 344

Paxtaobod t. 1 341

Jalaquduq t. 1 232

Buloqboshi t. 905



Xonobod sh. 644

Ulug'nor t. 592

Bo'ston t. 565

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 38 402 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 30 398 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (151,3 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (114,4 foiz), savdo (114,3 foiz), sanoat (107,6 foiz), axborot va aloqa (105,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (104,9 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (129,7 foiz), Marhamat (122,2 foiz), Paxtaobod (122,1 foiz), Buloqboshi (121,6 foiz), Izboskan (121,1 foiz) va Xo'jaobod (120,9 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**Yillar kesimida soni****Yillar kesimida o'sish sur'ati****Hududlar kesimida**

Andijon sh.	1 202	Oltinko'l t.	179
Asaka t.	738	Jalaquduq t.	166
Baliqchi t.	363	Paxtaobod t.	147
Shahrixon t.	261	Izboskan t.	134
Qo'rg'ontepa t.	256	Buloqboshi t.	110
Andijon t.	235	Bo'ston t.	93
Marhamat t.	211	Xonobod sh.	77
Xo'jaobod t.	203	Ulug'nor t.	59


2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 15,0 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (66,9 foiz), qurilish (74,8 foiz), tashish va saqlash (78,2 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohalari (78,4 foiz) shuningdek, hududlar kesimida esa – Paxtaobod (71,7 foiz), Andijon shahri (72,2 foiz), Shahrixon (80,6 foiz) va Qo'rg'ontepa (81,8 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	790	Buloqboshi t.	97
Asaka t.	538	Baliqchi t.	59
Andijon t.	308	Xonobod sh.	56
Bo'ston t.	303	Jalaquduq t.	36
Shahrixon t.	251	Ulug'nor t.	35
Qo'rg'ontepa t.	199	Paxtaobod t.	34
Oltinko'l t.	149	Marhamat t.	26
Izboskan t.	103	Xo'jaobod t.	13

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- sentabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 997 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 91,8 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 104,2 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (127,8 foiz), qurilish (125,0 foiz), savdo (109,7 foiz), axborot va aloqada (109,1 foiz) hamda tashish va saqlash (103,6 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (118,2 %), Bo'ston (116,5 %), Shahrixon (114,1 %), Andijon (114,1 %), Baliqchi (111,3 %) va Izboskan (109,6 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 407 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 107,7 foizga, ya'ni 29 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qurilish (136,0 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz), savdo (121,8 foiz) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (112,5 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Asaka (142,9 foiz), Qo'rg'on tepa (140,0 foiz), Baliqchi (128,6 foiz), Bo'ston (128,6 foiz), Jalaquduq (113,3 foiz) hamda Paxtaobod (112,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	162
Andijon t.	31
Asaka t.	30
Shahrixon t.	28
Oltinko'l t.	23
Xonobod sh.	17
Buloqboshi t.	17
Jalaquduq t.	17
Xo'jaobod t.	15
Marhamat t.	14
Qo'rg'on tepa t.	14
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	9
Bo'ston t.	9
Izboskan t.	7
Ulug'nor t.	5

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

27 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	206 Sanoat	34 Qurilish
67 Savdo	4 Tashish va saqlash	10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
5 Axborot va aloqa	7 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	47 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH



Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 258 tasi qo'shma korxonalar, 149 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iyluk timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

